# TURBO PASKAL 7.0 DASTURLASH TILI

## Dastur va dasturlash tillari

1. **Kompyuterda biror masalani hal qilish uchun awal bu masala uchun nima tuziladi?** *Model va algoritm.*
2. **Dastur matni nima?**
   *Kompyuterda biror masalani hal qilish uchun algoritm ma'lum bir qonun-qoidalar asosida kompyuter tushunadigan tilda ko'rsatma va buyruqlar shaklida yoziladi. Bu yozilgan matn dastur matni deyiladi.*
3. **Dastur nima?**
   *Biror masalani hal qilishda kompyuter tushunadigan tilda yozilgan algoritm dastur deyiladi.*
4. **Dasturlash nima?**
   *Kompyuter uchun dastur tuzish jarayoni* ***dasturlash*** *deyiladi.*
5. **Dasturlash tili nima?**
   *Kompyuterda biror masalani hal qilish uchun algoritm ma'lum bir qonun-qoidalar asosida kompyuter tushunadigan tilda ko'rsatma va buyruqlar shaklida yoziladi. Bunda kompyuter tushunadigan til* ***dasturlash tili*** *deb ataladi.*
6. **Dasturlash tillarini shartli ravishda qanday guruhlarga ajratish mumkin?**
   *1. Quyi darajadagi dasturlash tillari;*
   *2. O'rta darajadagi dasturlash tillari;*
   *3. Yuqori darajadagi dasturlash tillari.*
7. **"ENIAC" uchun tuzilgan dasturlash tili dasturlash tilining qaysi guruhiga kiradi?**
   *Quyi darajadagi dasturlash tillariga.*
8. **AVTOKOD-BEMSH dasturlash tili dasturlash tillarining qaysi guruhiga kiradi?**
   *O'rta darajadagi dasturlash tillariga.*
9. **AVTOKOD-MADLEN dasturlash tili dasturlash tillarining guruhiga kiradi?**
   *O'rta darajadagi dasturlash tillariga.*
10. **IBM-360 elektron hisoblash mashinalarida qo'llanilgan dasturlash tili, dasturlash tilining qaysi guruhiga kiradi?**
    *O'rta darajadagi dasturlash tillariga.*
11. **Translaytorlar nima?**
    *Yuqori darajadagi dasturlash tillari uchun tuzilgan dasturlarni kompyuter tushuna olishi uchun raqamli ko'rinishga o'tkazuvchi maxsus dasturlar translaytorlar deyiladi.*
12. **Paskal dasturlash tili dasturlash tillarining qaysi guruhiga kiradi?**
    *Yuqori darajadagi dasturlash tillariga.*

*12.* **Ada dasturlash tili dasturlash tillarining qaysi guruhiga kiradi?**

*Yuqori darajadagi dasturlash tillariga.*

*13.* **RABAT dasturlash tili dasturlash tillarining qaysi guruhiga kiradi?**

*Yuqori darajadagi dasturlash tillariga.*

*14. C++* **dasturlash tili dasturlash tillarining qaysi guruhiga kiradi?**

*Yuqori darajadagi dasturlash tillariga.*

*15.* **Delphi dasturlash tili dasturlash tillarining qaysi guruhiga kiradi?**

*Yuqori darajadagi dasturlash tillariga.*

*16.* **Visual Basic Application dasturlash tili dasturlash tillarining qaysi guruhiga kiradi?**

*Yuqori darajadagi dasturlash tillariga.*

*17.* **Qanday dasturlash tillariga obyektgayo 'naltirilgan dasturlash tillari deb ataladi?**

*Biror yo'nalishdagi masalalarni hal qilishga moijallangan dasturlash tillari obyektga yo'naltirilgan* ***dasturlash tillari*** *deb ataladi*